ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ УЗБЕКИСТАНА.....	715
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
KORPORATIV DIVIDEND SIYOSATINING YANGI JIHATLARINI O'RGANISH: RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKAT MISOLIDA.....	723
Eshev Furqat A'zamovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA "AQLLI SHAHAR" BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH: INSONGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV.....	730
Raximova Madina Shuxrat qizi	
HUDUDIY IQTISODIY TIZIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY TUZILMALARI.....	737
Umarov Oqil Omiljonovich	



HUDUDIIY IQTISODIY TIZIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIIY TUZILMALARI

Umarov Oqil Omiljonovich

Alfraganus University, katta o'qituvchi

Email: qqil.87@mail.ru

ORCID: 0000-0002-9100-5645

Annotatsiya. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish masalalari uzoq yillar davomida iqtisodiyot, geografiya, hududiy rejalashtirish hamda mintaqashunoslik sohalari vakillarining ilmiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur yo'nalish davlat va biznes tuzilmalarida milliy, hududiy va mahalliy boshqaruv darajalarida faoliyat yurituvchi keng doiradagi amaliy mutaxassislar shakllanishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda yirik va kichik shaharlar hamda hududlarni rivojlantirishni rejalashtirish jarayonlarida iqtisodiy taraqqiyot masalalari strategik rejalashtirish tizimlariga tobora chuqur integratsiyalashmoqda. Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishning tashkiliy shakllari va usullari yuzasidan olimlarning ilmiy qarashlari hamda xulosalari umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiyot, neo-dirigistik yondashuv, samaradorlik modeli, kognitiv yondashuv.

Abstract. Issues of regional economic development have long been at the center of scholarly attention among specialists in economics, geography, territorial planning, and regional studies. This field has contributed to the formation of a broad range of practical professionals operating within government and business structures at national, regional, and local levels of governance. Today, in the processes of planning the development of large and small cities as well as territories, economic development issues are increasingly deeply integrated into strategic planning systems. This article summarizes scholarly views and conclusions regarding the organizational forms and methods of managing regional economies.

Key words: territorial economy, neo-dirigist approach, efficiency model, cognitive approach.

Аннотация. Вопросы регионального экономического развития на протяжении многих лет находятся в центре научного внимания представителей экономики, географии, территориального планирования и региональных исследований. Данное направление способствовало формированию широкого круга практических специалистов, осуществляющих деятельность в государственных и бизнес-структурах на национальном, региональном и местном уровнях управления. В настоящее время в процессах планирования развития крупных и малых городов, а также территорий, вопросы экономического развития все глубже интегрируются в системы стратегического планирования. В данной статье обобщены научные взгляды и выводы ученых относительно организационных форм и методов управления региональной экономикой.

Ключевые слова: территориальная экономика, нео-дирижистский подход, модель эффективности, когнитивный подход.

KIRISH

Iqtisodiy o'sishni tartibga solish masalasi makroiqtisodiy nazariya va amaliy faoliyatning eng muhim va asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni boshqarishdan ko'zlangan maqsad faqat iqtisodiy natijalarga erishish bilan cheklanmay, balki siyosiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy muammolarni yumshatish hamda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladigan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashdan iboratdir. Mazkur jihatdan, iqtisodiy o'sishni samarali boshqarish har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa bozor munosabatlariga o'tish sharoitida jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashishga intilayotgan O'zbekiston uchun ushbu masala alohida amaliy dolzarblikka ega.

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish uzoq yillar davomida iqtisodchilar, geograflar, rejalashtirish mutaxassislari hamda mintaqashunos olimlarning doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalish milliy, hududiy va mahalliy darajalarda faoliyat yurituvchi davlat organlari va biznes tuzilmalari amaliyotida keng qo'llaniladigan muhim sohaga aylandi. Bugungi kunda yirik va kichik shaharlar hamda hududlarni rivojlantirish jarayonida iqtisodiy o'sish masalalari strategik rejalashtirish tizimiga integratsiya qilinmoqda. Xususan, mintaqalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va aholi



farovonligini oshirish maqsadida barqaror rivojlanish strategiyasini qabul qilish to'g'risidagi qarorlar strategik rejalashtirishning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda [1].

So'nggi 50 yil davomida turli fanlarning olimlari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning tabiati, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonini tushuntirishga intiladigan bir qator modellarni ishlab chiqish hamda nima uchun mintaqalar o'zlarining iqtisodiy tuzilmalarida juda katta farqlarga ega ekanligi haqida nazariyalarni shakllantirdilar.

Ayniqsa, mintaqaviy olimlar sanoat tarmoqlari, bandlik, daromadlar, ishlab chiqarish qiymati, investitsiyalar va boshqalar kabi mintaqaviy iqtisodiy xususiyatlarni o'lchash va monitoring qilish uchun keng qamrovli metodologiyalar to'plamini ishlab chiqdilar. Bunda tahlilning miqdoriy va sifat usullaridan foydalangan holda, statistik va dinamik tahlillarga asosiy e'tibor qaratildi.

Vaqt o'tishi bilan ko'plab sohalar, jumladan, rejalashtirish, davlat boshqaruvi, biznes va menejment fanlari olimlari hamda amaliyotchilari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyasini tizimli ravishda shakllantirish uchun turli yondashuvlarni ishlab chiqdilar. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyasini rejalashtirish va amalga oshirish uchun, eng avvalo, boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurligi tahlillar orqali ma'lum qilindi.

Albatta, mintaq iqtisodiyotini rivojlantirishda mintaqaviy siyosat birinchi o'rinda turadi. Natijada, davlatning siyosiy boshqaruv tuzilmasi ta'sirida hudud iqtisodiyotining rivojlanishi va ularning o'zaro mutanosibligi masalalari juda ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

S. Smirnovning fikricha, davlatning vakolatli mintaqaviy siyosati hududiy yaxlitlikni saqlash, markazdan qochma tendensiyalarni bartaraf etish va qoloq hududlarni (ayrim anomaliyalar tufayli) qo'llab-quvvatlash choralari o'z ichiga olishi kerak. Ko'pgina mamlakatlarda bunday hududlar depressiv hududlar deb ataladi. Muammoli hududlar beqarorlik davrida, masalan, iqtisodiyotni isloh qilish jarayonida, Yugoslaviyada bo'lgani kabi, butun davlat tuzilmalarining qulashiga olib kelishi mumkin.

Mintaqaviy siyosatning maqsadlari asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi bilan belgilanadi: tabiiy va iqtisodiy salohiyatga asoslangan hududlarni ixtisoslashtirish; mintaqaviy reproduktiv jarayonlarning samaradorligi; iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanish darajalari uyg'unligining murakkabligi; atrof-muhitni boshqarishni ratsionalizatsiya qilish va boshqalar.

Jahon amaliyotini, shuningdek, mintaqaviy boshqaruvning mahalliy tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning samaradorligi ko'p jihatdan bozor iqtisodiyoti qonunlari bilan belgilanadigan aniq tamoyillarga rioya etishga bog'liq. Mintaqaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari, qoida tariqasida, markazsizlashtirish, sheriklik, subsidiarlik, harakatchanlik va moslashuvchanlik, shuningdek, ajratilgan vakolatlar prinsipini o'z ichiga oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunga qadar mintaqaviy iqtisodiyot va hududlar iqtisodiyoti bilan bog'liq ilmiy-nazariy masalalar qator iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan faol tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, hududlar iqtisodiyotini rivojlanish ko'rsatkichlarini baholashning nazariy-uslubiy asoslari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va tadqiqot institutlarida olib borilgan izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu masalalarni tadqiq qilishda o'z mulohaza va ilmiy qarashlari bilan faol ishtirok etib kelayotgan xorijiy olimlar qatorida U. Izard, V.M. Goxman, Robert M. Slov, Blaug M., R.E. Lukas, Meskon M., Albert M., Xedouri F., A. Granberg, A. Kiselnikov, V. Leksin, A. Shvesov, G. Kovaleva, O. Krasilnikov, N. Larina, A. Kiselnikov, E. Utkin, A. Denisov, B. Rayzberg, A. Pikulkin va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Respublikamizda ham mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va boshqarishning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy muammolari, hududiy iqtisodiyotni boshqarishning turli jihatlar va xususiyatlariga oid bo'lgan ilmiy qarashlar va nazariy izlanishlar ko'plab iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha qamrab olingan. Bu borada iqtisodchi olimlar qatorida Q. Abdurahmanov, T. Ahmedov, Sh. Imomov, Sh. Zaynutdinov, N. Yo'ldoshev, D. Rahimova, D. Qosimova, A. Sodiqov, A. Nizomov, S. Qobulov va boshqalar hududlar iqtisodiyotining nazariy-uslubiy jihatlarini o'rganish borasida chuqur izlanishlar olib bormoqda. Hududlar iqtisodiyoti bilan bog'liq ilmiy-nazariy tadqiqotlar va olimlarning fikr-mulohazalarini chuqur o'rgangan holda, muallif tomonidan ushbu muammoga o'ziga xos yondashuv shakllantirilgan. Ya'ni, muallif mintaq iqtisodiyotini boshqarish ahamiyati xususida atroflicha xulosalarni ishlab chiqqan hamda mamlakatimiz hududlariga ushbu tizimni joriy etish masalalariga oid o'z takliflarini ilgari surgan [2].

Hududlar iqtisodiyoti doirasida hududlar rivojlanishini boshqarish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmini o'rganish zarur hisoblanadi. G.V. Gutman, A.A. Miroyedov, S.V. Fedin kabi olimlar fikrlariga ko'ra, ishlab chiqarishni joylashtirish masalalari hududni o'rganuvchi fanlar tizimining yagona yo'nalishi emas. Ushbu fanlar tizimining asoschisi U. Izard hisoblanadi. Aynan U. Izard va V. Leontyevlar hududiy tashkilotlar iqtisodiyotini boshqarish, rejalashtirish, prognozlash va strategik boshqaruv kabi masalalarni qo'shgan holda hududiy fanlar predmeti doirasini kengaytirdilar [3].



Hudud iqtisodiyotini tadqiq etish obyekt(i), fan nomlanishidan ma'lum bo'lganidek, mamlakat hududlari hisoblanadi. "Hudud" atamasi aniq bir ma'noli izohga ega emas va turli fan yo'nalishlari hamda tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. "Hudud" va "tuman" (mintaqa) tushunchalarining yuzga yaqin izohlari mavjud.

Ahmedovning fikriga ko'ra, eng avvalo, o'z hokimiyati va boshqaruv organlariga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda moddiy-hududiy tizimlarni o'zida aks ettiruvchi aniq bir maqsadga yo'naltirilgan mintaqaviy birliklarni hudud deb tan olish lozim. Bunday tizimlarga turli xil ma'muriy-hududiy (milliy-davlat) birliklar misol bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi paytlarda mintaqalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish faollashdi, bu, birinchi navbatda, ularni ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlar sifatida o'rganishda namoyon bo'lmoqda. Faol mintaqaviy siyosatni olib borayotgan xorijiy davlatlar yetarli darajada rivojlanmagan hududlarning ishlab chiqarish kuchlarini tarkibiy qayta qurish, depressiv hududlarga nisbatan maxsus siyosat yuritish, aglomeratsiyalarni nomarkazlashtirish va o'sish omillarini aniqlashda klaster yondashuvlaridan foydalanmoqda.

Maqolada, shu bilan birga, tizimli va strategik tahlil, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik umumlashtirish, qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda hududlarni barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, investitsiyaviy salohiyati va qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Nomarkazlashtirish siyosati doirasida hududlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlarining roli va mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Globalashuv sharoitida mintaqalarning milliy iqtisodiyotdagi o'rni sezilarli darajada o'zgardi, bu esa mintaqaviy iqtisodiy tahlil va rejalashtirishning ahamiyatini kuchaytirdi. Zamonaviy boshqaruv tizimi hududlarning iqlimiy, resurs, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda indikativ rejalashtirish, imtiyozlar va huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Jahon tajribasida hududlarni rivojlantirishning uch yondashuvi mavjud: ilg'or hududlarni qo'llab-quvvatlash (AQSH), barcha hududlarda teng sharoitlarni ta'minlash (Germaniya) va asosan kam rivojlangan hududlarni qo'llab-quvvatlash (Skandinaviya mamlakatlari).

Bugungi davrda, haqiqatida, mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarish vositalarini faqat davlat aralashuviga, sof bozorga yoki ushbu vositalarning qandaydir kombinatsiyasiga qisqartirish mutlaqo bir tomonlama harakatdir. Shu munosabat bilan zamonaviy sharoitda mintaqaviy iqtisodiy siyosat modellarining xususiyatlarini ko'rib chiqish zarur. Albatta, mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishning bir necha shakllari mavjud. Jumladan:

Neo-dirigizm — davlatning bozor iqtisodiyotida faol va yo'naltiruvchi rolini nazarda tutuvchi iqtisodiy ta'limot bo'lib, u bozor muvaffaqiyatsizliklarini kamaytirish maqsadida indikativ rejalashtirish, davlat investitsiyalari hamda soliqlar va subsidiyalar kabi rag'batlantiruvchi vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi [4].

Samaradorlik (effektualizm) noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishga asoslangan boshqaruv modeli bo'lib, u mavjud resurslardan kelib chiqib erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash, tajriba va moslashuvchanlikka tayanishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv Xitoy iqtisodiyotini boshqarishda keng qo'llaniladi [5].

Kognitivizm esa inson kapitali, bilim va innovatsiyalarga tayangan iqtisodiy siyosat bo'lib, aholining mentaliteti va intellektual salohiyati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida qaraladi [6].

Mazkur uch modelning samarali amalga oshirilishi ikki asosiy shartga bog'liq: birinchidan, resurslar bilan ta'minlanganlik (tabiiy va inson kapitali), ikkinchidan esa iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni ta'minlovchi samarali tashkiliy tuzilma [7]. Ushbu tuzilma siyosiy modelni nisbatini aniqlash, ularni amalga oshirish, monitoring qilish va baholash mexanizmlarini qamrab oladi.

Tashkiliy tuzilma. Bu mintaq iqtisodiy boshqaruv siyosatini amalga oshirishni tashkil etish jarayonini o'z ichiga oladi. Tashkiliy komponentning bir qismi sifatida qaror qabul qiluvchilar quyidagi ko'plab savollarga javob berishlari kerak: yagona siyosat doirasida neo-dirigizm, effektualizm va kognitivizmni qo'llash nisbati qanday bo'lishi kerak? Vaqt o'tishi bilan uning o'zgarishi zarurligini hisobga olgan holda, ma'lum bir nisbatning optimalligi mezon qanday? Ularning umumiy majmuasini tashkil etuvchi u yoki bu iqtisodiy siyosat doirasida qanday aniq mexanizmlar qo'llanilishi kerak? Har qanday siyosat modelini amalga oshirishni qanday tashkil qilish kerak (jumladan, uning amalga oshirilishini monitoring qilish, natijalarni baholash va mutaxassislarni rag'batlantirish mexanizmlari)? Qaysi mezonlar bo'yicha ma'lum resurslarni tanlash va birlashtirish kerak? Kabi savollar (1-jadval).

1-jadval. Mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning rivojlanish shakllari va modellari¹

№	Model nomi	Tarifi
1.	Ekologik va iqtisodiy modeli	Mintaqaning tabiiy quyi tizimi va mintaqa iqtisodiyoti o'rtasidagi munosabatlarni mintaqaviy tizimning teng elementlari sifatida shakllantirishni ta'minlaydi.
2.	Innovatsiya va investisiya modeli	Bunda fan yutuqlari va ularning texnologik qo'llanilishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi. Innovatsiyalarni joriy etish mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi va uning iqtisodiy xavfsizligini kafolatlaydi;
3.	Ilmiy-texnik salohiyatni shakllantirish va undan foydalanishga asoslangan innovatsiyalar modeli	Model iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida bilim talab qiladigan tarmoqlarni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va texnologiyalarni joriy etish uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.
4.	Klaster tizimi modeli	Mehnat va ixtisoslashuv bo'linishi asosida tuzilgan o'zini-o'zi ta'minlaydigan kooperativ tadbirkorlik tuzilmalarining muayyan yakuniy mahsulot, xizmatlar yoki muayyan hududlarda ishlab chiqarishni tashkil etish uchun hududiy ishlab chiqarish tizimlariga texnologik integratsiyalashuvini o'z ichiga olgan klasterlarni shakllantirishga qaratilgan.
5.	Mobilizatsiya va innovatsiya modeli	Ilmiy-texnikaviy salohiyatning yangi formatini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu ilmiy kadrlar tayyorlash shakllarini takomillashtirish va ilmiy texnikaviy ishlanmalar ko'lamini kengaytirish sharoitida yuzaga keladi.
6.	Hududlarni barqaror rivojlanish modeli	Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Model iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik tamoyillarini hisobga olgan holda hududlarni rivojlantirish bo'yicha barcha qarorlarni ko'zda tutadi.

Agar neo-dirigizm, ta'sirchanlik va kognitivizm, shuningdek, mintaqaning resurslari hajmi berilgan bo'lsa, unda tashkiliy komponent ularni bog'laydigan bo'g'inga aylanishi kerak, bu esa mavjud cheklovlar sharoitida birlashgan iqtisodiy siyosatning maqbul amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bu tahlil qilinadigan jarayon bo'yicha sozlanishi mumkin bo'lgan qo'shimcha bo'lib, qaror qabul qilishda tizimli, integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlaydi.

Turli adabiyotlarda mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha bir qancha modellar keltirilgan. O'zgarishlar natijasida ushbu modellar bir jadvalga keltirildi.

Aniqlangan modellar, birinchi navbatda, mintaqaning ichki resurslari va ulardan foydalanishning ustuvor yo'llarini tanlashga asoslanadi. Biroq taklif etilayotgan modellardan faqat bittasida ijtimoiy omil va iqtisodiy faoliyatning ekologik xavfsizligi tamoyillarini amalga oshirish sharti bilan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish mexanizmlarini muvozanatlash yo'llarini izlash hisobga olingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Uslubiy yondashuvlar ko'rib chiqilib, muallif tomonidan mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish modelining ta'rifi asoslanadi. Buni iqtisodiy o'sishni, yuqori ijtimoiy standartlarni va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash uchun asosiy imtiyozlarni aniqlash hamda hududlarning strategik salohiyatidan eng maqbul foydalanish va rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv funksiyalari, mexanizmlari va vositalarining o'ziga xos kombinatsiyasi sifatida tushunish taklif etiladi. Modelni shakllantirish va faoliyat yuritishning asosiy tamoyillari zamon talablari va rivojlangan davlatlar uchun xos bo'lgan mintaqaviy boshqaruvning asosiy tendensiyalarini hisobga olgan holda tizimlashtirilgan, xususan: mintaqaning asosiy vakolatlarini aniqlash va mustahkamlash; barqaror rivojlanish mezonlariga muvofiqligi; innovatsion tafovutlar; barqarorlik va muvozanat.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muvozanat darajasini baholashning uslubiy yondashuvlari taklif etiladi, ular faoliyatning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini aniqlashga va ularni 100 % shkalada o'rtacha qiymatga nisbatan standartlashtirishga asoslangan. Bu tegishli ikki guruh mezonlari bo'yicha hududlarning oldinga siljish sur'atlarini aniqlash, ularni klasterlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muammoli yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari asoslab berilgan. Ular R. Bleyk va J. Mutonning o'zgartirilgan boshqaruv matritsasidan foydalangan holda hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning muvozanat darajasini aniqlashga imkon beradi hamda mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat turini, shuningdek, iqtisodiy muvozanatning asosiy yo'llarini va muayyan sharoitlarda ijtimoiy samaradorlikni aniqlash imkonini beradi.

¹ Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahliliga tayangan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Matritsa ma'lum koordinatalar bo'yicha ma'lum bir davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalariga qarab mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat turini tavsiflovchi beshta asosiy sektorni o'z ichiga oladi. Har bir siyosat turining tavsifi berilgan, uni takomillashtirish yo'nalishlari asoslab berilgan.

Hudud iqtisodiyotining strategik rivojlanishini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi funksiyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. –Ташкент: Фан, С. 8. 2021.
3. Isard Walter. Methods of regional analysis: an introduction to regional science / abridged translation from english by V.M. Gokhman [et al.]; introductory article and edited by A.E. Probst. — New York: Progress Publishers, 1966. — 659 p.
4. Осипов Ю.М., Бугаян И.Р., Зотова Е.С. (ред.). Российская системная перестройка как стратегическая неизбежность: неэкономика, неоиндустриализация, нео-дирижизм. — Ростов-на-Дону, 2021. — 160 с.
5. Karpets O.V., Yurchenko E. Possibilities for applying the concepts of effectuation and causation at the national level // Economy of region. — 2022. — Vol. 13, No. 1. — Pp. 226–236. — DOI: 10.17059/2022-1-21.
6. Абдикеев Н.М., Аверкин А. Н., Ефремова Н. А. Когнитивная экономика в эпоху инноваций // Вестник РЭА им. Г.В. Плеханова. № 1. 2022. -С. 3-20.
7. Шахрай С.М. Региональная политика России: состояние и перспективы: Докл. На науч.-практ. конф. «Стратегия стабилизации экономики региона: пробл. и решения», Новосибирск, апрель 2023 г. // Регион: экономика и социология. - № 2. - С.31- 45.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
